

UO'K: 371.85

YOSHLARNING IJODIY SALOHİYATINI OCHISH UCHUN QULAY TA'LIM MUHITINI YARATISH

XAYDAROV A.T., fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent, Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent

AKMALOVA A.N., tayanch doktoranti, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent

Аннотация

Maqolada yoshlarning intellektual imkoniyatlari haqida umumiy ma'lumot berilgan, shuningdek yuqori intellektual salohiyatga ega talabalarni tarbiyalash va ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik ishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Аннотация

В статье дается обзорная оценка интеллектуальных возможностей молодежи, а также рассматриваются специфические черты педагогической работы, направленной на воспитание студентов с высоким интеллектуальным потенциалом и формирование их профессиональных компетенций.

Annotation

The article provides an overview of the intellectual capabilities of young people, and also examines the specific features of pedagogical work aimed at educating students with high intellectual potential and developing their professional competencies.

Kalit so'zlar: yoshlar intellekti, texnologiya, ijodkorlik, yoshlar salohiyati, pedagogik faoliyat.

Ключевые слова: интеллект молодежи, технологии, творчество, потенциал молодежи, педагогическая деятельность.

Key words: youth intelligence, technology, creativity, youth potential, pedagogical activity.

Jamiyatning jadal rivojlanishi va ko'plab yutuqlarga erishilishi, xalq farovonligi bevosita mamlakatimizda yoshlar ta'lim va tarbiyasiga qaratilayotgan e'tiborga bog'liq.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan oily ta'limga jamiyat taraqqiyotini rivojlantirish, modernizatsiyalash bilan bog'liq bo'lgan yangi, yuqori talablarni qo'ymoqda[1]. «Milliy tafakkur salohiyatiga ega bo'lgan iste'dodli yoshlarni tarbiyalash va ularni qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim» kabi muhim vazifalar belgilab berilgan [2]. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, ta'lim jarayonini individuallashtirish, integratsiyalash va uning samaradorligini ta'minlash orqali shaxsning intellektual salohiyatini oshirish, bilim egallashning mustaqil, faol ijodiy usul va uslublarini ta'minlash muammosi intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq ravishda takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Davlatimiz rahbari, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning quyidagi fikri buning yaqqol dalilidir: «O'sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularni «Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans sari!» shiori atrofida birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni samarali va tizimli tashkil etish» [3].

Davlatimiz rahbari va mutasaddi tashkilotlar tomonidan yoshlarning intellektual salohiyatini g'oyaviy jihatdan rivojlanishi uchun asos bo'lmoqda. Bugungi jamiyatda ta'lim tizimida yoshlar intellektual salohiyati muhim o'rin tutadi. O'zbekiston – yoshlar mamlakati. Shu boisdan yoshlarning ta'lim-tarbiyasi va kelajigiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davlatimizning kelajagi bo'lgan yigit-qizlarni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs, qobiliyatli, komil inson qilib tarbiyalash masalasi har doim eng ustuvor vazifa bo'lib kelgan. Glo-

ballashuv davrida yoshlarni noan'anaviy usullar bilan kreativ fikrlash va tahlil qilishga o'rgatish, ularni ilm-fan, innovatsiyalarga qiziqtirish usullari yoritilgan bo'lib, bu borada mamlakatimizda shiddatli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, yoshlar ilm-fan va innovatsiyalarga oid qabul qilingan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar aks ettirilgan.

Intellektual salohiyatini rivojlantirish nafaqat yoshlar iqtidorini rivojlantiradi, balki kelajak avlodni huquqbuzarlik, jinoyatlardan himoyalashga zamin yaratadi. Chunki yuksak ma'naviyatli va intellektual salohiyati yuqori bo'lgan har bir talaba-yoshlar eng avvalo o'zini turli nomaqbulgar-chiliklardan tiyadi.

Natijada jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit – barqarorlik ta'minlanib, ushbu muhitda yetishayotgan avlod sog'lom dunyoqarash va kreativ fikrlashga ega bo'lib tarbiyalanadi. Bugun dunyo shunday bosqichga keldiki, intellektual salohiyatga va zamonaviy bilimga ega yoshlarsiz ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmazligi yaqqol ko'rinib turibdi. Shuning uchun yoshlarning iqtidorini aniqlash va uni rivojlantirish bugungi jamiyatimiz oldida turgan eng muhim masalaga aylangan.

Yurtimizda ham so'nggi yillarda yoshlarga o'z imkoniyatlarini ko'rsatish uchun barcha zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar berilyapti. Bosh maqsad O'zbekistonni yangi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichiga olib chiqishga qodir bo'lgan yoshlarning salohiyatini shakllantirishdan iborat. Va bu borada yoshlar intellektual salohiyatli va iqtidorli bo'lishi uchun ta'lim sifati har tomonlama zarur talablarga javob berishi kerak.

Hozirda talabalarda intellektual salohiyatni, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga bo'lgan ehtiyoj juda yuqori. Talabalarining intellektual salohiyati ularning ilmiy-tadqiqot faoliyati natijasi bo'lib, ijodiy qobiliyatlarni, ta'lim va kasbiy tayyorgarlikni, yangilik, o'ziga xos bo'lgan intellektual mahsulotlarni yaratish zarurligini o'z ichiga oladi. Zamonaviy texnologiyalar nafaqat ta'lim mazmunini rivojlantirish, balki talabalarining intellektual salohiyatini rivojlantirishda qo'l keladi.

So'nggi yillarda oily ta'lim jarayonida rivojlantiruvchi, muammoli, hamkorlikdagi, dasturli, blok-modulli, shaxsga yo'naltirilgan, o'yinli va axborot texnologiyalar keng qo'llab kelinmoqda. Har qanday ta'lim texnologiyasi uzluksiz ta'limning qaysi bo'g'inida qo'llanmasin, uning markazida ta'lim oluvchi shaxsi va uning qiziqishlari, ehtiyojlari ko'zda tutilishi kerak. Shuningdek, intellekt va ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda ta'lim texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Ushbu texnologiyalarning maqsadi talabalarda kasbiy salohiyatni shakllantirish va rivojlantirish, kelajak faoliyati haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash, o'z-o'zini rivojlantirish hamda shaxsiy sifatlarini tarbiyalashdan iborat [5].

Yoshlarni tarbiyalash, ularni o'qitish va dunyo-

qarashini shakllantirish pedagogning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Yoshlarni tarbiyalash muhim vazifa hisoblanib, oila va jamiyatning yetuk va barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida yoshlarning ma'naviy jihatlarini rivojlantirish ko'zga tutiladi. Dunyoqarashi keng, kreativ fikrlay oladigan, o'ziga ishongan, mustaqil fikrini bayon etadigan, ezgulik, adolatli bo'lish kabi sifatlariga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi [6].

Pedagog bir paytning o'zida ham yoshlarning shakllanishi va qayta o'zgarishiga ko'maklashishi, ham uning aqliy, hissiy va jismoniy rivojlanish, shakllanish jarayonini boshqarishi kerak.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- bilimlarni yaratish, ishlab chiqarish, ya'ni tadqiqotlar olib borish, ishlanmalar tayyorlash, o'z ustida ishlash, yangilikni izlash;

- ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida bilimlarni nazorat qilish;

- dasrlik yaratish, o'quv qo'llanma va boshqa o'quv-metodik materiallar, ilmiy maqolalar tayyorlash orqali bilimlarni tarqatish;

- yoshlarni bilimli qilib tarbiyalash, ularning shaxsini shakllantirish va rivojlantirish kabilar.

Pedagogik faoliyatning sanab o'tilgan ushbu xususiyatlari bir xilda ahamiyatga ega bo'lib, ular o'zaro aloqadorlikda amalga oshiriladi. Talabalar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning maqsadlariga aylantirish hamda talabalarni kasbga yo'naltirish ishlarini olib borishda bunga e'tibor berish pedagogik faoliyatning muhim shartidir.

Pedagogik faoliyatning bosh va asosiy maqsadi – har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash hisoblanib, u ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda, ijodiy imkoniyatlarini to'la ishga solib ham o'z manfaatlari uchun, ham davlat va jamiyat manfaatlari uchun maqsadni yuzaga chiqara oladi. Shunday qilib, pedagogik faoliyatmaqsadining o'ziga xosligi pedagogdan quyidagilarni talab qiladi:

- jamiyatning ijtimoiy vazifalarini ular to'la anglab, o'z shaxsiga qabul qilishi lozim. Jamiyat maqsadlarining «o'sib», uning pedagogik nuqtayi nazariga aylanishi;

- muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondashishi;

- talabalar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish [4]. Talabalar bilankasbga yo'naltirish ishlarini olibborishda bunga e'tibor berish zarur.

Endi pedagogik faoliyatning o'ziga xosligini ko'rib chiqish mumkin. Bu faoliyatning obyekti insondir. Pedagog-tadqiqotchilarning fikricha, pedagogikobyektning o'ziga xosligi quyidagilardan iborat:

- inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o'zining individual sifatleri, ro'y berayotgan voqealarning idrok qilishiva ularga o'zicha baho beradigan, takrorlanmaydigan faol mavjudod-

dir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir. Shunday qilib, pedagogik faoliyatning obyekti bir paytning o'zida bu faoliyatning subyekti bo'lib hisoblanadi;

– pedagogdoimo o'zgarib, o'sib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondoshishda bir xil qolip, shakllanib qolgan harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi;

– talabalarga pedagogdan tashqari atrof-muhit, ota-ona, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy hayot ham, ba'zan sezilmaydigan, ba'zan esa har tomonlama bir necha yo'nalishda ta'sir etadi.

Shuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamikita'sirlargavatalabalarning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi. Masalan, diniy ekstremizm va boshqa oqimlarga kirib ketgan yoshlarning adashganligini tushuntirish, ommaviy axborot vositalari orqali berilayotgan axborotlarni to'g'ri anglashga undash demakdir.

Tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash bilan uyg'unlashgan holda olib borilishi zarur. Umummanolganda, hozirgi zamon pedagogikasi hamkorlik pedagogikasi bo'lib, u o'quv yurtidagi tarbiyaviy munosabatlarning insonparvarlashuvi va demokratlashuviga yo'naltirilgan. Bunda talabalar faolligini oshirish, ularni pedagogik jarayonning ishtirokchisiga, o'qituvchini esa uning meh-

ribon ustoziga aylantirish muhimdir.

Oliy o'quv yurtida talabalar o'qituvchilardan quyidagi usullarni egallaydilar:

- pedagogik mahorat;
- o'z fikrini ravon ifodalay olish;
- talabalar qiziqishini orttirish;
- darsni to'g'ri tashkil qilish.

Pedagogik ta'lim jarayoni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida talabalarning intellektual qobiliyatlarini shakllantirishda kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi: masofaviy o'quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratish; kompyuter dasturchilar; tegishli mutaxassislarning birlashishi; pedagoglar o'rtasida vazifaning taqsimlanishi; talabalarning iqtidoriga qarab kasbiy bilimlarni o'rgatish.

Bir so'z bilan aytganda, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlanib borishining asosiy omillari jamiyat uchun muhim bir ustun rolini bajarib beradi. Yoshlar kelajak degani, kelajak esa albatta salohiyatli, tirishqoq, uddaburon va ilimli yoshlar qo'lida bo'lishini anglatadi. Bugun yurtimiz aholisining 60 %ni yoshlar tashkil etyapti. Ularning hammasida tabiat in'om etgan iqtidor va salohiyat bor. Jamiyatning vazifasi – o'z mustaqil g'oyalari bilan mamlakatimizda va jahon arenasida munosib o'rin egallay oladigan yoshlarni tarbiyalash, mamlakatimiz yoshlarini yaratilgan imkoniyat va imtiyozlardan unumli va samarali foydalanishga undashdan iborat. **Ana shunday yoshlar Yangi O'zbekiston kelajagini belgilaydi.**

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016-yil 7-dekabr. – Toshkent, «O'zbekiston» NMIU, 2017. – 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. Toshkent, «O'zbekiston», 2022. – 416 b.
4. Amonov M.N. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga qaratilgan jarayon mazmuni. // Экономика и социум, 2023, №. 4-1 (107), С. 40-43.
5. Жураев Б. Sharqda pedagogik faoliyatning maydonga kelishi va rivojlanishi. // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. // Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук. // Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 2023, №. S/2, С. 343-350.
6. Ходжаев Б.К., Жураев Б.Т. Повышение нравственно-эстетической культуры слушателей института повышения квалификации работников народного образования. // Экономика и социум, 2022, №.3-2(94), С. 1217-1222.